

YALPI HUDUDIY MAHSULOT






Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrda Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 145,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 8,0 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 113,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	19 626,5	24 145,3	108,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 123,1	23 531,8	108,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	503,4	613,5	108,9
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 123,1	23 531,8	108,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 841,1	9 508,7	104,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 897,4	5 072,1	112,8
	sanoat	2 463,7	3 337,2	114,7
	qurilish	1 433,7	1 734,9	109,4

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	Xizmatlar	7 384,6	8 951,0	109,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 368,2	1 704,1	111,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	966,3	1 239,1	117,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 050,1	6 007,8	107,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 352,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga yuqoridir.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 40,4 % ni, sanoat tarmog‘i 14,2 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 38,0 % ni tashkil qildi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,4	97,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	2,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	41,0	40,4
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	20,4	21,6
	sanoat	12,9	14,2
	qurilish	7,5	7,4
	Xizmatlar	38,6	38,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,2	7,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	26,3	25,5




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,4 %), sanoatda – 114,7 % (14,2 %), qurilishda – 109,4 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 109,6 % ni (38,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,4 % (7,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,3 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,6 % dan (25,5 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,7 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat – 118,1 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,5 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 74,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 74,6 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.